



ISSN 2010-6246

# ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

## Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

**2024.5/1**

[www.ilmsarchashmalari.uz](http://www.ilmsarchashmalari.uz)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**5/1-son (may 2024)**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal  
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

**Urganch – 2024**

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ABDULLAYEV O'tkir**, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ATADJANOV Ilxam**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**ATAYEV Shokir**, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),  
**AHMEDOV Oybek Saporbayevich**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DO'SCHONOV Tangribergan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ERMETOVA Jamila**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),  
**JUMANAZAROV Doniyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich**, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OTAMURODOV Sa'dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RUZMETOV Surojbek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**RO'ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zZMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O'zZMU),  
**SALAYEV San'atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SATIPOV G'oiqnazar**, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**O'ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**O'ROZBOYEV G'ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),  
**G'AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 5/1-son (may 2024)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

Manbalarga ko'ra, -ka // -g'a dalolat etilgan fe'l jinsi bilan bog'liq ravishda farqlanadi. Ta'kidlash lozimki, eski o'zbek yozuvidagi qo'lyozmalarda k asosan kof harfi bilan ifodalangani qo'shimchani qay-si hollarda -da// -dä va qaysi hollarda -ka// -kä shakllarida ishlatilganligi haqida qat'iy xulosa chiqarish qiyin.

O'rin payt kelishigi mumtoz qipchoq grammatikaga oid manbalarda maf'ul bixining bir ko'rinishi sifatida tavsiflangan bu kelishik manbalarda muftado va xabar (ega va kesim) bilan zarfi makon (o'rin holi) vazifalarida zikr etilgan va arabcha fi harfi jarri (predlogi)ga muvofiq ifoda sifatida ko'rsatilgan. Tarixiy manbalarda ham kelishikning -da// -dä, -ta// -tä shakllari qayd yetilgan. Uning -da// -dä shakli unli va jarangli undoshlardan, -ta// -tä shakli jarangsiz undoshlardan keyin ishlatilishi kuzatiladi. Tarixiy manbalarda uchraydigan *bazarda, qal'ada, uydä, yerdä, kökdä* kabi misollar bilan Xorazm qipchoq shevalari o'rtasida deyarli farq kuzatilmaydi. Faqat juz'iy farqlar lab uyg'unligi bilan bog'liq. Masalan, *üstünüzdä* Xorazm qipchoq shevalarida *üstünüzdä* shaklida ishlatiladi. O'rin payt kelishigi 3 shaxs egalik qo'shimchalaridan keyin qo'shilgan taqdirda "n" ortishi kuzatiladi: *arasında, üstündä* va hokazo. Shu bilan birga, ayrim farqlar ham mavjud. Masalan, *altında // äldindä* – oldida.

Chiqish kelishigi -dan// -dän, -tan// -tän "Attuhfa"da arabcha min predlogiga muvofiq grammatik shakl sifatida qaralgan. Codekus Cumanikusda uning eski -dän shakli ham uchraydi: *Tanrıdın*. Quyidagi misollar mumtoz qipchoq manbalar va Xorazm qipchoq shevalari materiallari o'rtasida unchalik farq yo'qligini ko'rsatadi: *attan, burundan*. Chiqish kelishigi borasida Xorazm qipchoq shevalari "n" bilan bitgan o'zaklarda yoki 3 shaxs egalik qo'shimchalaridan keyin bir "n" ortishi natijasida -nan // -nän ko'rinishini olishi bilan xarakterlanadi: *bala yaşınnan, xatın başınnan* [bola yoshidan, xotin boshidan] kabi.

Yana -dan// -tan// -nan [-dan// -tan// -nan] tarzida: *buvdaj+dan aldı* [bug'doy+dan oldi], *qışlaq+tan qaytdı* [qishloq+dan qaytdi], *qöli+n+nan aldı* [qo'li+dan oldi] kabi.

Xorazm qipchoq shevalaridagi kelishiklar tadqiqi qator noyob paremiologik birliklar yig'ish imkonini beradi. Masalan, *Säksänñä surnay üyränib, ölgändä çalzaqmısan; Örtasında qúyruyi, vuda xudanñ buyruyi* (topishmoq, tarozi); *Yöldan tavip alsanam sanab al* (maqol) kabi.

Xorazm qipchoq shevalarida kelishik qo'shimchalarining -ñ// -nñ [-ing, -ning], -dñ// -tñ [-ding// -ting] kabi turkiy yozma yodgorliklarda qayd etilgan qadimiy shakllari saqlanganligini kuzatdik.

**Xulosa.** Xullas, kelishik qo'shimchalarining aksariyati barcha lahjalar uchun umumiy bo'lsa ham, bu lahjalarning har biri uchun o'ziga xos bo'lgan, ularni tasnifiy jihatdan bir-birlaridan farqlab turadigan kelishik ko'rsatkichlari mavjud. Shevalarimizda (shuningdek, adabiy tilda ham) o'z ko'rsatkichlariga ega bo'lgan qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari nazariy jihatdan bir-birlari bilan turli variantda o'rin almashtirib yoki parallel ravishda qo'llanishi mumkin. Bunday holat adabiy tilda juda ham chegaralangan. Xorazm qipchoq shevalarida esa, aksincha, kelishik qo'shimchalarining bir-birlari bilan almashinishi ancha faol. Shuningdek, ko'rsatkichga ega bo'lgan kelishiklarning ko'pchiligi belgisiz holda ham qo'llanishi mumkin.

Shuningdek, Xorazm qipchoq shevalarida mavjud grammatik-funksional oziga xosliklar keyingi davrlar mahsuli bo'lmay, ular uzoq davrlar davomida shakllanganligini mumtoz manbalardagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). شیرین فرهاد و شیر نوائی. Танқидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсий. Тошкент, ЎЗР ФА нашриёти, 1961, 137-бет.
- (2). Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия [Туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб туҳфа]. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. Ташкент, 1968, 280-бет.
- (3). Abu Hayyon al-Andalusiy. Kitobul idrok lil lisonil-atrok. 1313, 530-бет.
- (4). Funda Toprak. Divānū lügati t-türk'te 'kipçakça' kaydiyla verilen kelimelerin tarihî kipçak sözvarlığı için-deki yeri. Cilt:16 Sayı:02 (2003), s. 79–90.

**Radjabov Ruslan Rajabmurodovich (Buxoro davlat universiteti "Fransuz filologiyasi» kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi; Email: rouslanrich@gmail.com; ORCID: 0000-0002-1565-1119)**  
**FRANSIYA AKADEMIYASI VA IMLO REFORMATSIYALARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Fransiya Akademiyasi, fransuz tilini takomillashtirish, fransuz tili lug'atlarini nashr etish borasida fikr yuritiladi. Asrlar mobaynida tilshunos olimlarning tilni osonlashtirish haqidagi, eski imloni yangisi bilan almashtirgani va imlo islohotlari xususidagi nazariy qarashlari o'rganilgan, ularga munosabat bildirilgan hamda misollar orqali tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** orfografiya, orfoepiya, ritm, imlo reformalari, imloviy lugʻat, nashrlar, harflar etimologiyasi, imlo islohotlari.

## ФРАНЦУЗСКАЯ АКАДЕМИЯ И РЕФОРМЫ ПРАВОПИСАНИЯ

**Аннотация.** В статье речь идет о Французской академии, совершенствовании французского языка и издании французских словарей. На протяжении веков теории лингвистов о замене старой орфографии новой для облегчения языкового развития и реформ орфографии изучались, реагировали на них и анализировались на примерах.

**Ключевые слова:** орфография, орфоэпия, ритмика, орфографическая реформа, орфографический словарь, издания, этимология букв, орфографическая реформа.

## THE FRENCH ACADEMY AND SPELLING REFORMS

**Annotation.** This article discusses the French Academy, the improvement of the French language and the publication of French dictionaries. Over the centuries, linguists' theories about replacing the old spelling with a new one for language facilitation and spelling reforms have been studied, reacted to and analyzed through examples.

**Key words:** orthography, orthoepy, rhythm, spelling reform, spelling dictionary, editions, etymology of letters, spelling reform.

**Kirish.** Til insonlar oʻrtasidagi yagona muloqot vositasi hisoblanadi. Davrlar oʻzgarishi, insonlarning aql-zakovati rivojlanishi natijasida dunyo tilshunosligida ham turli xil oʻzgarishlarni, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni taqozo qiladi. Biz bilamizki, dunyo tilshunosligida juda koʻplab tilshunos olimlar bu sohada oltinga teng ilmiy asarlarni yaratgan. Shu bilan birga, fransuz tilshunosligiga oid Sharl Balli, Ferdinand de Sossyur, Lui Megret, Mirey Hushon, Andre Shervel, Andre Guss, Nina Catach kabi olimlarning nazariyalarini misol tariqasida keltirish mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bugungi kunda ham fransuz orfografiyasi tilshunoslikning boshqa boʻlimlari kabi doimiy harakatda boʻlib, uni ishlatadigan jamiyat taʼsirida boʻlgan va shunday boʻlib qolmoqda. Belgiyalik lingvist olim Andre Goosse “Xalq hech qachon imloni tanlamagan. Oʻrta asrlarda soʻzlarning imlosiga koʻchiruvchilar qaror qilishgan [1], keyin, bu kuch Richelieu tomonidan Fransiya akademiyasiga topshirildi”, deb yozadi [Belgiya grammatikasi. 2006].

Oʻtgan davr mobaynida Fransuz Akademiyasi: 1694, 1718, 1740, 1762, 1798, 1835, 1878, 1932–35, va 1992-yillar davomida imloga 9 marta oʻzgartirishlar kiritdi.

**Muhokama.** Quyida ushbu imlo oʻzgarishlarini imlo reformalarida koʻrib chiqish mumkin.

1. Birinchi nashr 1694-yilda amalga oshirildi. Lugʻat ustida ishlash 1678-yildan boshlangan boʻlsa-da, uni faqatgina 1694-yilda tugallangan shaklda qiroлга taqdim etishdi ushbu imloviy lugʻat 18 000 soʻzni oʻz ichiga olgan edi.

2. Ikkinchi nashr 1718-yilda amalga oshirildi va bu nashrda juda koʻp imloviy oʻzgarish yoʻq edi [2]. Masalan: *exploré* oʻrniga *éploré* (yigʻlash) *syrop* oʻrniga *sirop* (sirop) (bu soʻzning grekcha formasi –*syrop*; lotinchasi–*syropus*) *noircisseure* oʻrniga *noircissure* (qorayish).

Birinchi va ikkinchi nashrlarda soʻzlarning, asosan, kelib chiqishi, yaʼni etimologiyasi saqlangan edi. Masalan: *corps*, *temps* soʻzlari *p* bilan va *teste*, *honneste* soʻzlari oʻrtasida *s* bilan yozilardi va ular lotincha *tempus*, *corpus*, *testa*, *honestus* soʻzlaridan kelib chiqqanligini, yaʼni etimologiyasini koʻrsatib turar edi. Toʻgʻri, baʼzi soʻzlar ham borki, ularda oʻzlarining kelib chiqishini koʻrsatadigan maʼum xarakterli harflar saqlanib qolmagan, masalan, *devoir*, *fevrier* soʻzlari kabi, ilgari *devoir* va *fevrier* boʻlgan, lotincha *debere* va *februarius* oʻrtasidagi munosabatni bildirish uchun yozilgan.

3. Uchinchi nashri 1740-yilda, lugʻatning 5000 dan ortiq soʻzlarning imlosini oʻzgartirdi.

1740-yilgacha	1740-yidan keyin	1740-yilgacha	1740-yidan keyin
<i>Accroistre</i>	<i>accroître</i>	<i>chrestien</i>	<i>chrétien</i>
<i>Advocat</i>	<i>avocat</i>	<i>chasteau</i>	<i>château</i>
<i>Albastre</i>	<i>albâtre</i>	<i>cecy, celui-cy</i>	<i>ceci, celui-ci</i>
<i>Apostre</i>	<i>apôtre</i>	<i>toy, moy</i>	<i>toi, moi</i>
<i>Aspre</i>	<i>âpre</i>	<i>gay</i>	<i>gai</i>
<i>Tousjours</i>	<i>toujours</i>	<i>abysme</i>	<i>abyme</i>
<i>bastard</i>	<i>bâtard</i>	<i>escole</i>	<i>école</i>
<i>Bestise</i>	<i>bêtise</i>	<i>bienfaicteur</i>	<i>bienfaiteur</i>

4. Toʻrtinchi nashr 1762-yilda amalga oshirildi. Bu nashrda, asosan, soʻzlardagi qoʻsh harflar olib tashlandi, yunoncha *y* va *th* harflari *i* va *t* bilan almashtirildi.

Qoʻsh undoshlarning olib tashlanishi:

1762-yilgacha – tt, ll, rr...,	1762-yildan keyin – t,l,r...,
agraffer	agrafer
argille	argile
éclore	éclore

Yunoncha harflarning olib tashlanishi yoki yning iga o'zgartirilishi:

<i>absynthe</i>	<i>absinthe</i>
<i>Chymie</i>	<i>chimie</i>
<i>méchanique</i>	<i>mécanique</i>
<i>déthroner</i>	<i>détrôner</i>
<i>Paschal</i>	<i>pascal</i>
<i>patriarchal</i>	<i>patriarcal</i>
<i>Scholie</i>	<i>scolie</i>
<i>schrofule</i>	<i>scrofule</i>
<i>adjouster</i>	<i>ajouster</i>
<i>Adveu</i>	<i>aveu</i>
<i>Debvoir</i>	<i>devoir</i>

Bu davrdagi imlo reformasida, foydasiz yoki o'qilmaydigan *b, d, h, s* harflarini olib tashlandi. *S* harfi bo'g'inning cho'zilishini belgilagan so'zlarda (accent circonflèxe) sirkomfleks urg'usi bilan almashtirildi. Oldingi nashrda bo'lgani kabi *u* qo'sh *i* o'rni egallamaydigan yoki etimologiya izini saqlab qolish uchun ishlatilmaydigan barcha holatlarda *y* harfi o'rniga yana oddiy *i* harfi qo'yildi. Shunday qilib, *foi, loi, roi* va boshqa so'zlar oddiy *i* bilan yoziladigan; *royaume, moyen, voyez* va boshqalar esa qo'sh *i* o'rni egallagan *y* bilan; *physique, synode* va boshqalarda *y* harfi bilan, bu faqat etimologiyani belgilash uchun xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 3–4 nashrlarda (1740, 1762-yillarda) birinchi nashr ruhida 8000 ga yaqin imlo o'zgartirildi. Bu nashrda olimlar ko'plab *aksan grav* va *aksan egu* urg'ularni o'rnatgan edilar.

5. Beshinchi nashr 1798-yilda amalga oshirildi, Akademiya lug'atlarning soddalashtirishni davom ettirdi va "inqilobiy" atamalarining lug'atini qo'shdi. Agar 1798-yilgi lug'atda *alaiter, alègre* bilan ham tan olingan bo'lsa, 6-nashrda bunday emas edi. Tilshunos Nina Katch bu davrdagi o'zgarishlarni nazarda tutib: "Il est impossible de parler ici de la seule tradition, il s'agit d'un choix" [3] deya ta'kidlaydi. Albatta, bu nashrda juda kam imlo o'zgarishlar amalga oshirildi.

6. Oltinchi nashr 1835-yilda chiqdi. Bu nashrdagi imloviy o'zgarishlar juda katta edi. U fransuz tili-ga o'zining zamonaviy qiyofasini bergan desak, yanglishmaymiz. Chunki bu safardagi nashr imloni soddalashtirib tartibga soldi va uni talaffuzga moslashtirdi. Biroq 1762-yildagi nashrda voz kechilgan yunoncha *ph, rh, th* murakkabroq etimologik shakllarga (*rhythme, aphte*) qisman qaytdilar. Eng katta o'zgarishlardan biri asrlar davomida talaffuz qilib kelinayotgan *oi (ua)* harf birikmasi *ai (e)* "*françois-français*"ga o'zgartirildi, aslida, bu o'zgarishlar ancha oldinroq buyuk fransuz yozuvchisi Volterning 1751-yilda nashr ettirgan *Le Siècle de Louis XIV*" kitobida o'z aksini topgan edi. (hozirgi kunda ham Kanadaning Kvebek lahjalarida hali ham qisman *oi (ua)* kabi talaffuz saqlanib kelinadi), so'zlardagi ko'plik formasi *ent* va *ant* uchun *ens, ans* ga emas, balki *ents, ants* kabi uzgartirildi. Oltinchi nashr, 1798-yildagi beshinchi nashrga "inqilobdan beri qo'llanilgan yangi so'zlarni" o'z ichiga olgan qo'shimchani olib tashlash imkoniyatidir [4]. Ammo XVIII asrda qisqartirilgan yunoncha harflar ushbu 6-nashrda qaytadan kiritilgan edi. Nina Katch o'zining ilmiy o'rganishlarida aynan mana shu "xato bo'lib, standartni noto'g'ri tanlash va bu masalada standart prinsipining o'zi tufayli biz hali ham ikki baravar to'layapmiz", deb yozadi.

Misollarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

<i>j'avois</i>	<i>j'avais</i>
<i>aimoit</i>	<i>aimait</i>
<i>je connois</i>	<i>je connais</i>
<i>le françois</i>	<i>le français</i>
<i>les savans</i>	<i>les savants</i>
<i>anglois,</i>	<i>anglais</i>
<i>j'estois</i>	<i>j'etais</i>
<i>je feroi</i>	<i>je ferais</i>
<i>je finirois</i>	<i>Je finirais</i>
<i>croie</i>	<i>craie</i>
<i>des enfans</i>	<i>des enfants</i>

1835, 1878, 1932–1935-yillardagi imlo o‘zgarishlari so‘zlarning etimologiyasiga qisman qaytish bilan birga, yangi tuzatishlar va *qo‘shma so‘zlar (entracte, contrebalancer, chienlit...)* sonining ko‘payishi bilan ham ajralib turadi deya olamiz.

Buyuk fransuz adibi Volter esa “*L’écriture n’a été inventée que [...] pour pindre la parole*” deb hisoblar edi.

*1835-yilgacha*: “Ma foi, je connois le françois & les savans, les dents de mes parens, etc”. *1835-yildan so‘ng esa*: “Ma foi, je connais le français et les savants, les dents de mes parents, etc”.

7. Yettinchi nashr 1878-yilda chop etilgan lug‘at bo‘lib u quyidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan edi: *e* harfi ustidagi ikki nuqta *accent grave* yoki *accent aigu* urg‘ulari bilan almashtirildi. Ammo ba’zi o‘ziga xos otlarda saqlanib qoladi, masalan, Noël, va hokazolar, <è> harfi bilan ma’lum imlolar o‘sha paytda eskirgan talaffuzga muvofiq, <è> bilan almashtiriladi, xususan, “g” dan oldin: “college”, “Liège”, “siège” singari, etimologik jihatdan *chth* va *pht* kabi yunoncha harf guruhlari *cht* va *pht*ga soddalashtirilgan; Ba’zi umumiy otlar va – *ement* qo‘shimchalaridagi talaffuz etilmaydigan “e” harfi qo‘shilishi yoki o‘chirilishi mumkin bo‘ldi, *Contre* qo‘shimchasi bilan boshlanadigan 13 ta yangi qo‘shma so‘z: *Contrefort*, *contresen* yoki *contrepoison* kabi, *Entre* qo‘shimchasi bilan boshlanadigan 5 ta yangi qo‘shma so‘z: *entrecôte* yoki *entresolkabi* yangi lug‘atlar bilan boyitildi.

Quyidagi jadvalda 1878-yildagi imlo o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin :

Poëte	poète	aphthe	aphte
Poëme	poème	diphthongue	diphtongue
collège	collège	asyle	asile
Liège	Liège	anévrisme	anévrisme
Siège	siège	abyme	abîme

8. Sakkizinchi nashr 1932–1935-yillar oralig‘ida amalga oshirildi. Bu lug‘atida 500 ga yaqin so‘zning imlosini, jumladan, “*grand’mère*», “*grand-mère*»ga o‘zgartirildi. 1900-yillarning boshidan imloni soddalashtirish harakati davom etdi va “Le Réformiste” gazetasi islohotchi doiralar uchun imlo kampaniyasining boshchisiga aylandi. Orfografiya islohotlari boshida 1910 L.Kleda, keyinroq, *Revue de philologie française*, o‘z navbatida, 1933-yilda A.Dauzat rahbarligidagi *Le Français Modernega* o‘z o‘rnini bo‘shatadi. Xuddi shu nuqtai nazardan, bir qancha filologlar, jumladan, A.Darmesteter, G.Parij va F.Bruno (1905–1953) qo‘shildi, ular kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim bosqichlarni qo‘ydilar. Fransuz Akademiyasi ushbu davrdagi imlo o‘zgartirilishini nazarda tutib, shunday deydi: “Fransuz tilining imlosi, barcha zamonaviy tillar singari, evolutsiya jarayonida talaffuzdagi o‘zgarishlar yoki etimologiyasi tufayli o‘zgartirildi” [Académie. 1932. 8].

**Natijalar.** Imlo islohoti loyihasi Oliy Kengashda muhokama qilingan paytdan boshlab va 1952-yil oxirigacha bu masala matbuotda qizg‘in muhokamalarga ham sabab bo‘ldi:

–Mashhur *Le Figaro* gazetasi ushbu imlo islohotlarga ochiqchasiga qarshi chiqdi.

–*Le Monde* gazetasi akademiyaning qarshiligini oqladi.

–*Le Figaro Littéraire* nashri bunga qarshi “O‘quvchilarimizning to‘rt dan uch qismi imlo islohotiga qarshi” degan maqola e‘lon qildi.

–Bir guruh fransuz yozuvchilari ham ushbu imlo islohotlariga qarshi edilar, jumladan, yozuvchi Kolet shunday deb yozgan edi: “Men so‘zlarga zarar yetishini xohlamayman”.

–Dramaturg va shoir *Pol Klodel* esa o‘z maqolasini: “Men qarshiman” deb nomlagan edi.

Albatta, bunday imlo islohotini yoqlab yoki aksincha, unga qarshi ko‘plab maqolalar, hatto viloyatlarda ham paydo bo‘lgan edi.

Akademiya 1986-yildagi imlo lug‘atining to‘qqizinchi nashri birinchi risolasida ba’zi o‘zgarishlarni qabul qilgan bo‘lsa-da, 1987-yilda nashr etilgan ikkinchi kitobida esa ularni butunlay rad etadi. 1989-yilda Fransiya Bosh vaziri Mishel Rokar Fransuz tili Oliy Kengashidan navbatdagi imlo o‘zgartirishlarini yakuniga yetkazishni so‘radi. U lug‘atlar o‘rtasidagi ko‘plab anomaliyalar va nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan imlo tuzatishlarini kiritish kerakligini aytdi. Kengash a‘zolari, jumladan, J.Daniel, J.-L.Godard, B.Beer, B.Puaro-Delpeche, P.Terre, T.Ben Jellone. Imlo qo‘mitasiga Moris Druon raislik qildi va unga A.Gusse, N.Katach, B.Cherkilini, J.-P.Kolignon, K.Myuller, J.Rey kabi jami 9 kishidan iborat bo‘lgan olimlar birga fransuz tili orfografiyasiga doir ilmiy izlanishlar olib bordilar.

**Xulosa.** Xulosa o‘rinda, Fransuz Akademiyasining 9 marotaba amalga oshirilgan imloviy reformalaridan har qanday til vaqtlar o‘tib borishi bilan boyishi, eskirishi talaffuzda bo‘ladigan o‘zgarishlarga yuz tutishi mumkin bo‘lgan murakkab hodisa ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz.

Mazkur ilmiy o'rganishimizga tillar va ulardagi imlo, orfografiya va orfoepiya doimiy o'zgarishlarga yuz tutishidan guvoh bo'ldik.

Shubhasiz, eski imlo asta-sekin yangisi bilan almashtirilishi lozim, chunki har qanday imlo islohoti boshida beqarorlikka olib kelishi tabiiy hol hisonlanadi. Shuning uchun mutaxassislar an'anaviy imlo bo'yicha o'qitilgan, bilimli kishilarning grafik va vizual odatlarini, birinchi navbatda, imlo nomuvofiqliklarini asta-sekin yo'q qilishni xohlashlarini kuzatishimiz mumkin. Tildagi istisnolarni qanchalik kamaytirsak, tilni shunchalik soddalashtirgan va qanchalik soddalashtirsak, shunchalik to'g'ri yo'nalishda bo'lishimizni aytish joizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Andre Goosse. Belgiya grammatikasi, 2006.
- (2). Émile Faguet. Simplification simple de l'orthographe, 1905.
- (3). Nina Catach, Histoire de l'orthographe française, Paris, Honoré Champion, p. 304.
- (4). Jacques Chaurand. Histoire de la langue française, «Que sais-je», 1969, rééd. 1991, pp. 104–105.
- (5). Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari: Filol. fan. dok. diss. avtoref ...
- (6). Radjabov, Ruslan. Orfografiya. Fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar. Orfografiya to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari. Центр научных публикаций (BuxDU.uz) 27.27 (2023).
- (7). Ruslan, Radjabov. «Points de vue scientifiques sur les normes orthoépiques françaises». Gospodarka i Innowacje. 42 (2023), p. 726 – 730.
- (8). Ruslan, Radjabov. «À propos du terme orthoépique». Gospodarka i Innowacje. 42 (2023), 731–735.
- (9). Radjabov, Ruslan. “Fransuz tilining orfoepik normalari xususida”. Центр научных публикаций (BuxDU.uz) 45.45 (2024).
- (10). Radjabov, Ruslan. Fransuz tili imlosidagi ba'zi bir kamchiliklar xususida. “Молодые ученые”, 2.1 (2024), с. 69 – 71.
- (11). Ruslan Radjabov. Orphoepic Norms and Principles of the French Language. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), vol. 2, №. 1, Jan. 2024, pp. 269–72, [https:// grnjou.rnal.us/index.php/AJPDIS/article/view/2880](https://grnjou.rnal.us/index.php/AJPDIS/article/view/2880).

Irgasheva Shoxida Sadriddinovna (Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti  
katta o'qituvchisi; [azizshahzoda82@gmail.com](mailto:azizshahzoda82@gmail.com))

#### INTERNET DISKURSDAGI NEOLOGIZMLARNING TARJIMA ME'YORLARI

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot internet diskurs ijtimoiy media interfeysida uchraydigan neologizmlarning dominant turlarini aniqlash, neologizmlarni tarjima qilishda tarjimonlar tomonidan qo'llaniladigan tarjima tartiblarini va neologizm tarjimasida tarjima me'yorlarini tavsiflashga qaratilgan. Tadqiqot Nyumarkning neologizm tipologiyasi va tarjima protseduralari (1988) va Tourining tarjima normalari konsepsiyasini (1995) qo'llash orqali olib borilgan sifatli tadqiqot deb hisoblaymiz. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 1) yangi ma'noga ega mavjud leksik birikmalar (so'zlar) interfeysda dominant bo'lgan neologizm turi; 2) tranferesiya va to'liq tarjima orqali tarjimonlar tomonidan qo'llaniladigan dominant protseduralar bo'lib, ijtimoiy tarmoq interfeysida neologizmi tarjima qilishda me'yorga aylandi. Ijtimoiy tarmoq interfeysida topilgan neologizmlarning deyarli barchasida o'zbek tilida ekvivalentlari yo'q degan xulosaga kelish mumkin va neologizmlarni tarjima qilib bo'lmaydi, chunki ular ijtimoiy tarmoq interfeysida ishlatiladigan atama yoki jargonlar hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** tarjima me'yorlari, neologizm, internet, diskurs, tarmoq, interfeys.

#### СТАНДАРТЫ ПЕРЕВОДА НЕОЛОГИЗМОВ В ИНТЕРНЕТ ДИСКУРСЕ

**Аннотация.** Целью данного исследования является выявление доминирующих типов неологизмов, встречающихся в интерфейсе интернет дискурса социальных сетей, описание переводческих процедур, используемых переводчиками при переводе неологизмов, а также переводческих норм при переводе неологизмов. Мы считаем исследование качественным с использованием типологии неологизмов и процедур перевода Ньюмарка (1988) и концепции норм перевода Тури (1995). Результаты показали, что: 1) существующие лексические единицы (слова) с новым значением являются доминирующим типом неологизма в интерфейсе; 2) перенос и полный перевод являются доминирующими процедурами, используемыми переводчиками, а социальный стал нормой при переводе. Неологизм в сетевом интерфейсе. Можно сделать вывод, что практически все неологизмы, встречающиеся в интерфейсе социальной сети, не имеют эквивалентов в узбекском языке, а неологизмы не



<b>Mambetkarimov Rinat Rustemovich</b>	Zamonaviy ta'lim berishda muammoli ta'limning o'rni va roli	<b>82</b>
<b>Abdullayeva Lobar Bazarbayevna</b>	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari	<b>85</b>
<b>Oblaqulova Dinora Jamshid qizi</b>	Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning samarali metodlari	<b>88</b>
<b>Jumagulova Aziza Abdujalil qizi</b>	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilar jismoniy sifatlarining rivojlanishini nazorat qilish, texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligining pedagogik asoslarini takomillashtirish	<b>90</b>
<b>Kosimova Nargiza Dilmuratovna</b>	Komplaens munosabatlar tahlili hamda psixologik mexanizmlari	<b>94</b>
<b>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzayevna</b>	O'qituvchilarda ta'lim jarayonini olib borishda akmeologik yondashuv asosida kognitiv kompetensiya ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik yo'llari	<b>96</b>
<b>Nafasov Izzatbek Shernafasovich</b>	"Kichik guruhlarda ishlash" metodidan foydalanish orqali talabalarni faollashtirish mexanizmlari	<b>99</b>
<b>Ubaydullayev Raximjon Murodilovich</b>	Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda pedagogik fanlar imkoniyati	<b>103</b>
<b>Odiljonova Kamola Abduvosit qizi</b>	O'quvchining leksik kompetensiyalarini rivojlantirishda verbal ta'sir vositalaridan foydalanishga o'rgatish metodik muammo sifatida	<b>109</b>
<b>Bekmanova Gulbaxar Begdullayevna</b>	Oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	<b>112</b>
<b>Xamraqulov Zafarjon Yigitaliyevich</b>	Huquqiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni	<b>114</b>
<b>Ruziyev Islambay Samandarovich</b>	Bo'lajak transport muhandislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda axborot-didaktik bazasining o'rni	<b>117</b>
<b>Payzibayeva Muazzam Yakubovna</b>	"Tarbiya" fani darslarida aktdan foydalanish orqali o'quvchilarning kognitiv qobiliyatini shakllantirish	<b>119</b>
<b>Xasanova Xurshida</b>	Kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo bog'liqlikka asoslangan topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati	<b>122</b>
<b>Po'latova Zubayda Abduravupovna</b>	Ma'naviy-axloqiy fazilatlar haqida tushuncha va ta'riflar	<b>125</b>
<b>Allambergenov Abat Janabergenovich</b>	Talabalarning individual rivojlanish trayektoriyasini tyutorlik faoliyati asosida funksional boshqarishning metodologiyasi	<b>129</b>
<b>Рузметова Новваль Вахабджановна</b>	Проблема обучения английскому языку будущих юристов в аспекте правового воспитания	<b>132</b>
<b>Khusanova Hilola Hakhberdiyevna</b>	The Complex World of Phenomenon-Based Learning	<b>138</b>
<b>Xotamov Nurbek Boliyevich</b>	Competitive Forms of Organization of Physical Education Classes	<b>141</b>
<b>Khakimova Shakhnoza Asranbek kizi</b>	The Methods Used in Teaching Technical Terminology	<b>144</b>
<b>ILMIY AXBOROT</b>		
<b>Marziyayev Janabay Kalibayevich</b>	Ekologiya jurnalistikaning bir qismi sifatida	<b>147</b>
<b>Muxamedova Iqbolxon Olim qizi</b>	Abdulla Avloniyning jurnalistlik faoliyati	<b>149</b>
<b>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</b>	Jadidlarning jamiyat ma'naviy qiyofasi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqidagi qarashlari	<b>153</b>
<b>Alimova Shahnoza Maqsudovna</b>	Xorazm qipchoq shevalarida kelishik qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlari	<b>157</b>
<b>Radjabov Ruslan Rajabmurodovich</b>	Fransiya akademiyasi va imlo reformatsiyalari	<b>159</b>
<b>Irgasheva Shoxida Sadriddinovna</b>	Internet diskursdagi neologizmlarning tarjima me'yorlari	<b>163</b>
<b>Maxmudova Muattar Maxsatilloevna</b>	Buxoro tarjimachilik maktabida S.S.Buxoriyning ijodi va uning "Mag'rib-u mashriq" devoni tarjimasi haqida	<b>167</b>
<b>Меликова Мартаба Нумоновна</b>	Социальный детерминизм в философских взглядах Навои	<b>171</b>
<b>Tuxtasinova Nigina</b>	Научно-теоретические основы исследования агиографических произведений	<b>175</b>

# “ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**  
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**  
Musahhihlar: **Туримова Тамара,**  
**Aybek Kalandarov**  
Ushbu songa mas’ul **Aybek Kalandarov**

Terishga berildi: 10.05.2024  
Bosishga ruxsat etildi: 20.05.2024  
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.  
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.  
Adadi 125. Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma №.11  
Hisob-nashriyot tabag‘i 25  
Shartli bosma tabag‘i 23  
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani  
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi  
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)  
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.  
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;  
e-mail: [ilmsarchashmalari@umail.uz](mailto:ilmsarchashmalari@umail.uz)  
[ilmsarchashmalari@mail.ru](mailto:ilmsarchashmalari@mail.ru)  
Veb-sayt: [www.ilmsarchashmalari.uz](http://www.ilmsarchashmalari.uz)  
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>